

O'ZBEKISTONDA SOYADAGI TA'LIMNING RIVOJLANISHI

Zaylobidinova Munira Gulomovna

Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosan O'zbekistonda soyadagi ta'limning rivojlanish omillari muhokama qilinadi. Ayniqsa, unga bo'lgan talabning o'sishi va o'quvchi-yoshlarni "repetitor" kurslaridan foydalanishga majbur qiladigan sabablar o'rganilgan. Shuningdek, maqolada repetitorlarning ta'lim berish sifati haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *soyadagi ta'lim, talab, neoliberalizm, iste'molchilik, xususiylashtirish, davlat tomonidan tartibga solish, tarqatish, kasb-hunar kollejlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье в основном рассматриваются аспекты распространения теневого образования в Узбекистане. В частности, триггеры спроса и то, что заставляет студентов нанимать частных репетиторов. В нем также описывается качество репетиторских центров и государственная политика в отношении частных репетиторских центров.

Ключевые слова: *образование, спрос, неолиберализм, потребление, приватизация, государственное регулирование, распространение, профессионально-технические колледжи.*

KIRISH

Ayni paytda mulkni xususiylashtirish- neoliberalizm ko'p davlatlarda jadal suratlarda rivojlanib bormoqda va jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Mulkni xususiylashtirish va davlat tasarufidan chiqarish bu neoliberal yondashuv bo'lib, bunda davlat aktivlari xususiy mulk tarkibiga kiradi. Ta'lim sohasiga neoliberal yondashuv kirib keldi va ayni paytda o'quv dargohlarni xususiylashtirish odatiy holatga aylanib bo'lgan. Ta'limni xususiylashtirish ham global hodisaga aylanib turlicha ko'rinishlarga ega. Masalan buning bir turi xususiy universitet, maktab, bog'chalarni paydo bo'lishi bo'lsa, yana bir turi "repetitorlik" markazlarining jaddal tarzda rivojlanishidir. Bu jarayon butun dunyoda "shadow education-soyadagi ta'lim" deb nom olgan.

Verger (2016) ta'limni xususiylashtirish ilgari kuzatilgan jarayon emasligini ta'kidlaydi. O'quv dargohlari oilalar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunda albatta moliyaviy ta'minlangan oilalar farzandlarini bilim oladi, kam ta'minlangan oilalar farzandlari esa chetda qoladi yoki davlat yaratgan bepul maktablarda o'qiydilar.

Shunda: “Butun dunyo bolalar huquqi konvensuyasi” nima uchun kerak?- degan savol tug’iladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Repetitorlik-neoliberal element qadriyatlarini o’z ichiga oladi va yashirin xususiylashtirish jarayoniga kiradi. Repetitorlik kurslari asosan maktabdagi asosiy darslardan keyin amalga oshadi. Repetitorlar-o’quvchilarning maktabdagi fan o’qituvchisi yoki universitet talabasi bo’lishi mumkin.

Baker (1992) “shadow education-soyadagi ta’lim” iborasini 1992 yili muomalaga olib kirdi va bu metafora 1999 yildan buyon ta’limda keng qo’llana boshlandi. Keyinchalik bu ibora ko’plab olimlarning ilmiy asarlarida uchray boshladi. Nima uchun soyadagi ta’lim iborasi olindi degan savolga Bray (1999): “...chunki repetitorlarning dasturi asosan maktabdagi o’quv dasturidan olinadi. Shunday qilib soyadagi ta’lim bu-bolalar bilan maktab dasturi ustida intensiv shug’ullanish jarayonidir” deb takidlagan.

Bray (1999), shuningdek, soyadagi ta’limni quyosh-soatiga taqqoslagan, chunki quyosh osmon bo’ylab harakatlanar ekan, uning soyasi quyosh-soatining turli soat chizig’iga to’g’ri keladi. Huddi shunday, soyadagi ta’lim asosiy maktab ta’lim dasturidan olinadi va maktab dasturiga chambarchas bog’liqdir.

Hozirda “repetitor”, “repetitorlik kursi” atamaları o’zbek tilida ko’p qo’llanadigan atamalarga aylangan. Aslida bu so’z rus tilidan olingan bo’lib o’zbek tilida aniq talqini yo’q. “Repetitor” o’zbek tiliga xususiy murabbiy deb tarjima qilinadi ammo muloqotda murabbiy so’zi kamdan kam “repetitor” mano’sida ishlatiladi. Shuning uchun ruscha “repetitor” so’zi repetitor, repetitorlik hodisani tasvirlash uchun olingan.

O’zbekistonda soyadagi ta’lim fenomeni

O’zbekistonda soyadagi ta’lim jarayonini o’rganishdan oldin, mamlakatning geografik joylashuvi va tarixiy kelib chiqishiga to’xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir. O’zbekiston Markaziy Osiyodagi ikkita davlat tomonlarga dengizga chiqqan olmaydigan yagona davlat bo’lib, shimoldan Qozog’iston, shimoli-sharqdan Qirg’iziston, janubi-sharqdan Tojikiston, janubi-g’arbdan Afg’oniston va Turkmaniston bilan chegaradoshdir. O’zbekiston Sotsialistik Respublikasi 1924-yilda sobiq Ittifoq tomonidan tuzilgan. 1991 yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi O’zbekistonga, boshqa O’rta Osiyodagi mamlakatlar singari, mustaqillik olib keldi. O’zbekiston mineral resurslarga boy, asosiy iqtisodiyoti paxta yetishtirish, dehqonchilik, chorvachilikdan iborat. O’zbekiston jahonda paxta yetishtiruvchi yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Mamlakat aholisi 33 milliondan ortiq kishidan

iborat bo'lib, o'zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar va ozroq qismini koreyslar tashkil etadi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston ta'lim tizimi deyarli Sovet Ittifoqi tizimiga o'xshab ketardi. Postsovet davrida O'zbekiston ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim (2-7 yosh), boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf) va o'rta maktab (5-11-sinf) ta'limidan iborat bo'lgan. O'rta maktabni tugatgandan o'quvchilarda ikkita tanlov bor edi ya'ni 5 yillik yoki 7 yillik ta'limni tanlash kerak edi. 5 yillik ta'limni tamomlagan talabalar "Профессиональное-техническое училище" (PTU) nomi bilan mashhur bo'lgan o'rta ta'lim muassasalariga o'qishga kirardilar. O'quvchilar o'rta maktabni (11 yillik ta'limni) tugatgan so'ng oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi mumkin bo'lgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2007-2008) ta'kidlanganidek, 1997-2001 yillar O'zbekistonda milliy ta'lim siyosatini shakllantirish davri bo'lgan. 1997 yilda ta'lim vazirligi tomonidan milliy dastur qabul qilindi va u milliy qonunchilik darajasigacha shakllantirildi. O'zbek milliy dasturi Sovet Ittifoqidan keyingi dastlabki vaqtinchalik islohotlarni to'xtatdi va ta'lim islohotlarini amalga oshirish uchun izchil harakat boshladi. 1998-yilda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan sohada jiddiy islohot amalga oshirildi. Ushbu islohot tufayli barcha o'rta maktablar bitiruvchilari majburiy ta'lim sifatida professional va kasb-hunar ta'lim muassasalari belgilandi. Bunday islohot o'rta maktabda o'qish muddatini 11 yildan 9 yilga qisqartirdi. Bundan tashqari, islohotda umumta'lim maktablarini bitiruvchilar uchun qo'shimcha 3 yillik majburiy ta'lim belgilandi. Professional va kasb-hunar kollejlarning joriy etishning maqsadi o'qitish sifatini oshirish, yoshlarning kasbiy mahoratini oshirish va mehnat bozoriga kirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish edi (UNDP, 2007). Kollejlardan farqli o'laroq, litseylar o'quvchilarni davlat dasturi orqali oliy o'quv yurtlariga tayyorlashga yo'naltirilgan (Zaylobidinova, 2021).

O'zbekistonda 1998-yildan boshlab kollejlarda tahsil olish majburiy ta'lim sifatida joriy etilgan, biroq majburiy ta'lim o'z maqsadlarini oqlay olmadi. O'quvchilarning kollejlarda davomati pastligi va litseylarda repetitorstvaga bo'lgan talabning yuqoriligi hukumat vakillarini tizimga o'zgartirish kerakligi haqida o'ylantirdi. Qolaversa, aksariyat ota-onalar kollejlarda ta'lim sifati qoniqarli emasligidan shikoyat qilar edilar. Shuning uchun aholining fikrini aniqlash maqsadida, umumta'lim maktablarida majburiy ta'lim islohotini saqlab qolish yoki o'zgartirish haqida so'rovnoma o'tkazildi va ta'lim sohasida o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan litseylar ikki yillik o'quv dargohiga aylandi. O'quvchi litseyni tugatgandan so'ng o'rta maktabni tamomlaganlik to'g'risidagi guvohnoma oladi. Kollejlarda esa to'lov-kontrakt asosida o'qitish joriy etildi va 11 yillik

majburiy o'rta ta'limni tugatgan talabalarni qabul qilishni boshladi. Kollejlarda o'qish muddati talabalar tanlagan fakultet va mutaxassislikka bog'liq (odatda 1,5-2 yil). Hozirgi kunda O'zbekistonda aksariyat yoshlar majburiy ta'limni tugatgandan so'ng, oliy o'quv dargohida o'qishga kirishga harakat qilishadi. Odatda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'ta olmagan yoshlar kollejlarga boradi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi, bu esa ta'limga sarflanadigan mablag' va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirdi. O'zbekistonga ierarxik markaziy rejalashtirish va resurslarni samarasiz taqsimlash Sovet Ittifoqi siyosatidan meros bo'lib qoldi, bu nafaqat ta'lim, balki boshqa sohalarni moliyalashtirishda ham ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va madaniyat Tashkilotining (2001) (UNESCO) ma'lumotlariga ko'ra, davlatning ta'limga sarflangan xarajatlari 6,8% gacha qisqartirilgan, ammo ota-onalarning ixtiyoriy hissasi 55% gacha oshgan. O'zbekiston hukumati ta'lim sohasiga katta sarmoya kiritdi va moliyaviy yukni mahalliy hokimiyat o'rganlar, maktablar va ota-onalar zimmasiga yuklab, ta'limni markazlashtirishga harakat qildi (Ochiq Jamiyat Instituti, 2002). Maktablar bolalarni tekin kitoblar bilan, o'quv xonalarni esa jihoz va texnologiya bilan ta'minlay olmadi. O'qituvchilarning maoshi 3-4 oyga kechiktirildi va shu sababli ko'plab malakali o'qituvchilarning ish tashlash jarayoni kuzatildi. Odamlar maktablardagi sifatli ta'limga bo'lgan ishonchini yo'qotib, o'zlari farzandlari uchun xususiy repetitorlar yollashni boshlashdi. Shunday omillar va ayniqsa, ish haqining kechikishi, o'qituvchilar oilasini boqish uchun boshqa daromad manbaini izlashga majbur qildi (Zaylobidinova, 2021). Bunga o'xshash omillar Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin gruziyalik o'qituvchilarni ham ish tashlab repetitorlik bilan shug'ullanish jarayoni jaddalashdi. (Kobaxidze, 2018).

O'zbekistonda soyadagi ta'limning rivojlanishining yana bir sababi, markazlashtirilgan test tizimining joriy etilishidir. Abiturientlar o'rtasida raqobatni kuchayishi, xususiy repetitorlikni rivojlanishiga asos bo'ldi. 2013 yil manba'siga asosan O'zbekistonda 100 o'rin uchun 633 nafar abituriyent kurash olib bordi. Imtihan topshiruvchilar eng yuqori ball olishga va grant asosida o'qishga harakat qiladilar, chunki pul to'lab o'qishga ko'p odamlarning moliyaviy ahvoli to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini pullik repetitor bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratib berishga kirishdilar.

O'zbekistonda o'quv markazlari nafaqat maktab fanlarini, balki bolalar bog'chasi, pazandachilik va hunarmandchilikni o'rgatish ham o'z ichiga oladi. O'quv markaz egalari odatda xususiy tadbirkorlardir. Ularning maqsadi qo'shimcha daromad topish shuning uchun binoni ijaraga oladilar, repetitorlik qiluvchi

o'qituvchilarni yollaydilar va davlatga daromad solig'ini to'laydilar. Bunday markazlarni ochish uchun markazlashgan yagona darcha-elektron tizimidan litsenziya oladilar. O'zbekistonda kengayib borayotgan o'quv markazlardan yana biri bu IELTS (inglis tilini bilish darajasi) repetitorlik markazlaridir. IELTS markazlarini har bir xohshi bor xususiy tadbirkor yoki xususiy repetitor ochishi mumkin. Odatda repetitorlik kurslarini o'tkazish uchun bo'sh bino ijaraga olinadi va hukumat ro'yxatidan o'tkaziladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga kelib Farg'ona viloyatida 220 repetitorlik markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yana bir qiziq hodisa shundaki, repetitorlik Farg'onaning ayrim tumanlarida oilaviy biznesga aylangan, ya'ni oila a'zolari bilan repetitorlik qilishadi. Hindistonlik Puballi Ghoshning (2019) takidlashicha Hindistonnig ayrim shaharlarida oilaviy repetitorlik faoliyati kuzatish mumkin. Biroq, soyadagi ta'limning ushbu shakli chuqur o'rganilmaganligi tufayli bu haqda ma'lumotlar kam uchraydi. Farg'ona shahrida oilaviy repetitorlik rivojlanganlik jarayonini esa quyida tasvirlashga harakat qildim.

O'zbekistonda abituriyentlarning bilimi oliy ta'lim muassasasining muayyan fakultetiga kirish imtihonida 1994-2021 yillar oralig'ida uchta majburiy fanlardan iborat bo'lgan. Asosiy fanlar "blok" nomini olgan. "Blok" so'zi ruschadan olingan bo'lib "bo'lim" ma'nosiga egadir. Barcha fanlar bo'yicha 36 ta test savollar tuzilib faqatgina uchta yo'nalish bo'yicha davlat test imtihonlarida abituriyentlarga tarqatilar edi. Ana shunday fanlar triangulyatsiyasi mavjudligi sababli, ayrim xususiy repetitorlar oila a'zolari, qarindoshlari yoki do'stlarini repetitorlik qilish jarayoniga jalb qilar edilar va shu tufayli oilaviy biznes yaratar edilar. Masalan, tarix fanidan ota, ona-tilidan o'g'il va ingliz tilidan qiz farzand repetitorlik bilan shug'ullanar edi. Bunday sharoitda abituriyentlar nafaqat o'qishardi, balki repetitorning uyida ham yashashardi. Taxminan 40 nafar abituriyent xonadonning bitta katta xonasiga joylanar edi va mana shu xona ularning bir yil davomida uxlash va ovqatlanish xonasiga aylanardi. Biroq, agar qizlar va o'g'il bollar birga o'qisa, xonalar ajratilar edi. Oilaviy repetitorlarning hozirda ham mavjud bo'lib intensiv kurslari odatda sentyabr oyida boshlanadi va iyun oyining oxirida tugaydi. Bunday sharoitda abituriyentlarga smartfonlardan foydalanish, televizor ko'rish taqiqlanadi, abituriyentlar faqatgina o'qish bilan ovvora bo'ladilar. Talabalar har ikki haftada repetitorlik to'lovi va yashash uchun yetarli oziq-ovqat olib kelish uchun uylariga borishadi. Oilaviy repetitorlar abituriyentlarni kirish imtihonlarida 90% muvaffaqiyat va'da qilishar, kirolmagan abituriyentni esa aybi o'zida ekanligini ta'kidlashadi. Ularning uyqu soatlari, repetitorlik mashg'ulotlari, ovqatlanish va mustaqil o'rganish vaqti rejalashtirilgan va bu qoidalarga barcha ta'lim olayotgan yoshlar rioya qiladilar.

Bilimlarni o'zlashtira olmagan yoki qoidalarga rioya qilmagan o'quvchi repetitorlik kurslaridan chetlanadi. Bunday oilaviy repetitorlik Farg'onaning Vodil, Qo'qon va Rishton viloyatlarida keng tarqalgan.

Hozirda repetitorlik qilish faolligi O'zbekistonda ancha pasaygan. Bunga sabab oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari talablari o'zgarganligi, xususi universitetlar, maktablar va bog'chalar paydo bo'lganligidandir.

Oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarining talabini o'zgarganligi, masalan, uchta asosiy fanlar qisqartirilib ikkita bo'lib qolgan ammo uchta majburiy fanlar qoshilgan. Boshqa tomondan qaraganda imtixonlarda fanlar soni ko'payib abituriyentlarni yanada ko'proq repetitor kurslariga qatnashga majbur qilib qo'ydi. Chunki O'zbekistonda aksariyat xususi repetitorlarning asosiy maqsadi talabalarni har yili bo'ladigan oliy o'quv yurtiga kirish imtihoniga tayyorlashdir. Ammo yildan yilga imtihon shartlari o'zgarib boryapti. Chet tiliga bo'lgan e'tibor kuchaygani tufayli magistratura va doktorantura bosqichida o'qimoqchi bo'lgan talabgorlarga til bilish xalqaro sertifikatini hal qiluvchi vazifani bajaryapti. Shuning uchun hozirgi kunda chet tilidan repetitorlik kurslari yanada rivojlanib eng qimmat pul to'lab o'qiladigan kursga aylangan.

Repetitorlik markazlarida talabalarining soni odatda 30-40 abituriyentni tashkil qiladi. Repetitor kurslariga oylik to'lov repetitorning maqomi va fanga ko'ra bir oz farq qiladi. Agar repetitor, "mashxur" bo'lsa, uning xizmati boshqalarga qaraganda qimmatroqdir. Ingliz tili hozirda elita va talabgorlar soni yuqori fan hisoblanadi, shuning uchun ingliz tilidan repetitorlik narxi qimmatroqdir.

Xususan, IELTS repetitorlari eng qimmat hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida IELTS dan saboq berib, shu yillar davomida shuhrat qozonayotgan usta-repetitorlar biznesi ancha rivojlangandir. Aksariyat hollarda IELTS xalqaro imtixonidan yuqori bal olgan o'quvchilar o'zlari taxsil olgan repetitorlik markazlarida ishlagani qoladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ingliz tili bo'yicha xususi repetitorlik ancha kengaygan. Bunga asosiy sabab hozirgi kunda yoshlarning chet elda o'qish tendensiyasi kundan kunga o'sib bormoqda va bu fenomen ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Vestminster (Buyuk Britaniya), Inha (Koreya), Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti kabi jahon universitetlarining Toshkentdagi filiallari IELTS bali bilan talabalarni o'qishga qabul qilinadi. Shu sababli, odamlarning talabini qondirish uchun IELTS o'qitish markazlari soni ortib bormoqda. Boshqa fanlardan masalan: tarix, o'zbek, biologiya, kimyo fanlari ham yetakchi o'rinda turadi, chunki O'zbekistondagi nufuzli universitetlarga (masalan: Toshkent jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi) kirish uchun

talabgorlar tarix, ingliz va o'zbek tili fanlaridan imtixon topshirishlari kerak. Ammo, xususiyl repetitorlik davlat tomonidan tartibga solinishi kerak, chunki ayrim markazlarda repetitorlarning bilimi va dasr berish metodikasi davlat ta'lim standartlariga to'g'ri kelmaydi.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Bray, M. (2009). *Confronting the shadow education system: What government policies for what private tutoring? (Soyadagi ta'lim bilan kurashish: Repetitorlikka qarshi kurashishga davlat siyosati qanday?)*, Paris: UNESCOning xalqaro ta'limni rivojlantirish instituti.
2. Baker, D. P., Akiba, M., Le Tendre, G. K., & Wiseman, A. W. (2001). *Worldwide Shadow Education: Outside-School Learning, Institutional Quality of Schooling, and Cross-National Mathematics Achievement (Jahon soyali ta'lim: maktabdan tashqari ta'lim, maktab ta'limining institutsional sifati va milliy matematika yutuqlari)* Educational Evaluation and Policy Analysis
3. Kobakhidze, M. N. (2016). *Teachers as tutors: shadow education market dynamics in Georgia* (Doctoral dissertation, University of Hong Kong Libraries).
4. Munira, Z. (2022). THE BACKWASH OF SHADOW EDUCATION. *Conferencea*, 110-111.
5. Munira, Z. (2022). GLOBALIZATION EDUCATION IN UZBEKISTAN: REFORMING THE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN WITH THE PARTNERSHIP OF INTERNATIONAL ORGANIZATION. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 310-319.
6. Gulomovna, Z. M. (2022). Commodification of education in the form of shadow education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 200-206.
7. Silova, I., & Bray, M. (2006a). *Education in a Hidden Marketplace: Monitoring of Private Tutoring Overview and Country Reports*. Budapest: Education Support Program (ESP) of the Open Society Institute.
8. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 359-362.
9. Mamanovich, R. H. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 122-128.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.

11. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
12. Zaylobidinova, M. G. (2022). ASSESSMENT SYSTEM IN HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 330-334.